



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLAR TAHLILINI TAKOMILLASHTIRISH

Bekzod Abdusamatov Amirqul o‘g‘li

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Annotatsiya

Mazkur tezisda “Kapitalbank” ATBning moliyaviy hisobotlarining amaldagi tahlil jarayoni chuqr o‘rganildi. Bank hisobotlari xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga (IFRS) muvofiq shakllantirilgan bo‘lsa-da, ularning tahlilida qator kamchiliklar mavjud. Jumladan, ko‘plab ko‘rsatkichlar yuzaki yoritiladi, rentabellik, likvidlik, to‘lovga qobiliyat, kapital yetarliliqi kabi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichla

Kalit so‘zlar: : tijorat banklari, bank aktivlari, aktivlardan foydalanish samaradorligi, likvidlik, rentabellik, risklarni boshqarish, raqamli tahlil,

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy axborotning aniqligi, shaffofligi va tezkorligi tijorat banklari faoliyatining samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biridir. Ayniqsa, banklar tomonidan tuziladigan moliyaviy hisobotlar nafaqat ichki boshqaruv qarorlarini qabul qilish, balki tashqi manfaatdor tomonlar —investorlar, auditorlar va nazorat organlari uchun ishonchli manba sifatida xizmat qiladi. Shuning uchun ham moliyaviy hisobotlarning to‘g‘ri shakllantirilishi, xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lishi va chuqr tahlil qilinishi zamонавиybаnk tizimida muhim strategik vazifaga aylangan.

Mavzuning dolzarbliги

O‘zbekiston bank tizimida olib borilayotgan islohotlar, xususan, moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishga o‘tish jarayoni ushbu sohaga yangi talablarni qo‘ymoqda. Shu jihatdan, tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni tahlil qilish uslublarini takomillashtirish, raqamlashtirilgan tahlil mexanizmlarini joriy etish va axborotlarning real vaqtida olinishi katta ahamiyat kasb etadi.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

Moliyaviy hisoboti - bu tashkilotning moliyaviy holatini, faoliyat natijalarini va pul oqimlarini ko'rsatib beradigan asosiy hujjat bo'lib, foydalanuvchilar (investorlar, soliq organlari, tahlilchilar, rahbariyat va boshqalar) uchun ishonchli axborot manbai hisoblanadi.

"Kapitalbank" ATB 2022–2024 yillar davomida aktivlar hajmini sezilarli darajada oshirgan bo'lsa-da, aktivlar tarkibida likvid bo'lмагan kreditlarning ulushi yuqori bo'lib qolmoqda. Bunday vaziyatda moliyaviy hisobotlarning oddiy ko'rsatkichlar asosida emas, balki ko'p omilli tahlili zarur bo'ladi. Misol uchun, bankning sof foiz daromadi (Net Interest Income) o'sayotgan bo'lsa ham, umumiy rentabellik nisbati pastligicha qolmoqda. Bu esa xarajatlar tarkibining noto'g'ri boshqarilayotganidan dalolat beradi.

Tijorat banklari faoliyatida moliyaviy hisobotlar eng muhim axborot manbalaridan biri bo'lib, ularning to'g'ri va o'z vaqtida tuzilishi bankning ichki boshqaruvi, tashqi nazorat va jamoatchilik ishonchliliginin ta'minlaydi. Moliyaviy hisobotlar orqali bankning moliyaviy holati, daromad va xarajatlar dinamikasi, aktiv va passivlar tarkibi, likvidlik va rentabellik ko'rsatkichlari aniqlanadi. Shu sababli, hisobotlarni chuqur tahlil qilish nafaqat mavjud holatni baholash, balki strategik qarorlar qabul qilishda ham muhim rol o'yndaydi.

Amaliyotda ko'plab tijorat banklari, jumladan, "Kapitalbank" ATB o'z moliyaviy hisobotlarini Milliy buxgalteriya standartlari asosida tuzadi. Biroq global moliyaviy integratsiya sharoitida xalqaro moliyaviy hisobot standartlari —IFRS (International Financial Reporting Standards) asosida hisobot yuritish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ushbu standartlar orqali moliyaviy axborotlar yanada shaffof, solishtiriladigan vaishonchli ko'rinishga ega bo'ladi. ar "Kapitalbank" ATB 2022 yildan boshlab xalqaro standartlarga bosqichma-bosqich o'tishni boshlagan va bu jarayon bank ichidagi tahlil metodologiyalarini ham tubdan o'zgartirishni talab qilmoqda. Bank moliyaviy hisobotlarini tahlil qilishda asosan vertikal va gorizontal tahlil, moliyaviy koeffitsiyentlar, trend tahlili va nisbiy ko'rsatkichlar ishlataladi. Masalan, daromadlar va xarajatlar nisbati, sof foiz marjasи, aktivlar rentabelligi, kredit portfeli va depozitlar tarkibining o'zgarishi orqali bankning moliyaviy barqarorligi baholanadi. "Ipak Yo'li" AITB hisobotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, bank daromadlarining asosiy qismini foizli



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

daromadlar tashkil qiladi, biroq foizsiz daromadlar (komissiyalar, xizmat haqlari) ulushi ham ortib bormoqda. Bu bank xizmatlarining diversifikatsiyalanayotganini ko‘rsatadi.

Tijorat banklarida MHXSlariga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tib bo‘lmaydi. Agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo‘yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo‘llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shartsharoit va ma’lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart.

Xulosa va Taklif

Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida yuritishni to‘liq joriy etish: IFRS (xususan IFRS 9, IFRS 7 va IFRS 16) standartlari asosida hisob yuritish bank hisobotlarining ochiqligi va solishtiriluvchanligini ta’minlaydi.

2. Moliyaviy tahlil jarayonlarini avtomatlashtirish: Power BI, Tableau, 1C va boshqa analitik vositalar orqali real vaqt rejimida moliyaviy ko‘rsatkichlarni vizual va interaktiv tahlil qilish tizimini yaratish tavsiya etiladi.

3. Ichki tahlilni boshqaruva qarorlariga integratsiya qilish: Tahlil natijalarini strategik rejallashtirish, byudjetlashtirish va risklarni boshqarish jarayonlariga bevosita ulash orqali tahlilning amaliy qiymatini oshirish lozim.

4. Tahlilchi kadrlar salohiyatini oshirish: Moliyaviy tahlil, prognozlash, stress-test va modellash bo‘yicha xodimlar uchun xalqaro darajadagi treninglar va sertifikatlash (masalan, CFA, ACCA) tashkil etilishi kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy ko‘rsatkichlari statistik byulleteni. Toshkent

2. “Ipak Yo‘li” AITB. (2023). Yillik moliyaviy hisobot. Bank ichki axborot portali.

3. IFRS Foundation. (2014). International Financial Reporting Standards (IFRS 9, IFRS 7, IFRS 16). London: IFRS Foundation.

4. Basel Committee on Banking Supervision. (2019). Pillar 3 Disclosure Requirements –Updated Framework. Bank for International Settlements.



E CONF SERIES



International Conference on Educational Discoveries and Humanities

Hosted online from Moscow, Russia

Website: econfseries.com

16th September, 2025

-
- 5.Saidova, G. (2021). Tijorat banklarida moliyaviy hisobot tahlilining zamonaviy yondashuvlari. Bank ishi jurnali, No3, 41–46.
 - 6.Tadjibaeva, N. (2022). Moliyaviy tahlilda axborot texnologiyalarining o‘rni. “Iqtisodiyot va innovatsiya” jurnali, No1, 58–65.
 - 7.Deloitte. (2021). Financial Reporting Trends in Banking Sector: Challenges and Opportunities. Deloitte Insights.
 - 8.EY (Ernst & Young). (2020). Improving Financial Transparency in Emerging Markets. Global Financial Report.
 - 9.Komilov, A. (2022). O‘zbekiston tijorat banklarida IFRSga o‘tish tajribasi. Ilmiy-texnik va iqtisodiy axborotlar to‘plami, No2, 19–24.
 - 10.World Bank. (2021). Uzbekistan Financial Sector Development Strategy: Diagnostic Review. Washington, D.C.